

## 18-mavzu: Rassoming yuksalishi ("Gulxan" jurnalidan)

### Darsning maqsadi:

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarni "Rassomning yuksalishi" matni bilan tanishtirish, ifodali o'qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarda bag'rikenglik, mehribonlik, g'amxo'rlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash; matnda aks etgan go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish hissini o'stirish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, hozirjavoblik ko'nikmalarini rivojlantirish.

### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars metodi:** savol-javob, interaktiv o'yinlar

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, multemedia ilovalari

### Darsning blok chizmasi:

#### 1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- O'tilganlarni takrorlash: **"Maqollar zanjiri" o'yini.**

Bu o'yin baytbaraklar asosida yuzaga kelgan. Undagi asosiy talab bir guruh (tomon) aytgan maqol qaysi harf (tovush) bilan tugasa, keyingi tomon ayni mana shu harf (tovush) bilan boshlanadigan maqolni aytishi kerak bo'ladi:



**1-o'quvchi:** Aytar so'zni ayt,  
Aytmas so'zdan qayt.

**2-o'quvchi:** Til – aql bezagi.

**3-o'quvchi:** It egasiga hurmas.

**4-o'quvchi:** Sabrning tagi sariq oltin...

**2.Asosiy qism(yangi mavzu bayoni va mustahkamlash):**



🎨 Kundalik hayotimizda rassomlarning ishlarini qayerlarda uchratishimiz mumkin?

🎨 “Rassomning yuksalishi” matni o‘qib, tushuntirib beriladi. Keyin “Zanjir” usulida o‘quvchilarga o‘qitiladi.

🎨 **Savol-javob:**

- 1.Asar kim haqida ekan?
- 2.Asar qahramoni haqida qanday ma’lumotlarga ega bo’ldingiz?
- 3.Uning o‘z maqsadiga erishishiga nima sabab bo’lgan deb hisoblaysiz?
- 4.Sizga qaysi multfilm qahramonlari yoqadi? Nima uchun?
- 5.Agar siz multfilm yaratsangiz, u nima haqida bo’lar edi?
- 6.Asar nima uchun bu bo’limda berilgan?

📖 **Lug’at ustida ishlanadi.**

karikatura – tasviriy san’at turi, hajviy va kulgili qilib ishlangan rasm

🎨 **Berilgan parchani o‘qing. Uni davom ettiring.**

Uning bolaligi baxtsiz hodisalar, ko’ngilsiz voqealar ichida o’tgan. Shunday damlarda onasi o’g’lini g’aroyib ertaklar aytib ovutardi.

🎨 **Berilgan parchadan oldingi voqeani so‘zlab bering.**

Sevimli multiplikator 65 yillik umri davomida 29-marta „Oskar“ mukofoti hamda 700 dan ortiq mukofot bilan taqdirlangan.

🎨 **Asar qahramoniga tavsif bering.**





📌 Mashq daftaridagi topshiriqlar bajartiriladi.

**1-topshiriq.** Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang. To'g'ri gaplarning oldiga ☒ , noto'g'risining oldiga ☐ belgisini qo'ying.

- ☐ U 1901-yil 5-dekabr kuni AQShning Chikago shahrida dunyoga kelgan.
- ☐ Uning bolaligi baxtli hodisalar, yoqimli voqealar ichida o'tgan.
- ☐ Shunday damlarda onasi o'g'lini g'aroyib ertaklar aytib ovutardi.
- ☐ Uning birinchi "Alisa mo'jizalar mamlakatida" nomli multiplikatsion asari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.
- ☐ Ammo bu Uoltning ruhini tushirdi.
- ☐ Aksincha, yanada ko'proq mehnat qilishga undadi.

**2-topshiriq.** Taniqli amerikalik kinorejissor-multiplikator, rassom va prodyuser Uolt Disney tomonidan yaratilgan multfilmlarning nomini yozing.

.....

.....

.....

**3-topshiriq.** Matn asosida bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

Ehtimol, shuning uchun ham Uolt \_\_\_\_\_ o'lkasiga kirib borgandir. U 12 yoshidan boshlab turli xil ertaklarga \_\_\_\_\_ chizib, jurnal va \_\_\_\_\_ tahririyatlariga olib boradi. Afsuski, bu mashqlarni birorta \_\_\_\_\_ qabul qilmaydi. Uning keyingi urinishlari ham \_\_\_\_\_, u taqdirga tan berib, \_\_\_\_\_ bilan hamkorlikda biznes boshlaydi. Bu unga yashash uchun yetarli \_\_\_\_\_ keltiradi.

**4-topshiriq.** Uolt Disneyning multfilmlari qahramonlari nomini yozing.

.....

.....

.....



.....

.....

.....

### 3. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

- Darsda o'rganilgan bilimlar umumlashtirilib, dars yakunlanadi.
- Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

 **Uyga vazifa:** "Mening multfilmim" mavzusida kichik matn tuzing.

### 19-mavzu: Bo'lim yuzasidan takrorlash

#### Darsning maqsadi:

**Ta'limiy maqsad:** o'tilgan bo'lim yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarning buyuk insonlardan o'rnak olish, ular bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo'lishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

#### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: